

Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 191 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 176tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 15 270,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 124,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 175,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 11 417,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,6%), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 676,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 142,0%) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 935 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 922 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 477,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 8,2% ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 8 609,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 21,1 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 82,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Yangiqo'rg'on (157,7%), Uychi (145,9 %) va Uchqo'rg'on (145,3 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 330tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 320 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13 524,3 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 81,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.